

O‘ZBEKISTONDA AGRAR SEKTORDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH

Qadirov Abduxalil Ro'zmahammatovich

Qishloq xo'jaligi vazirligi Yer tuzish va yer munosabatlarini tartibga solish bo'limi boshlig'i,

Egamberdiyev Jobir Anvarbek o'g'li

*Qishloq xo'jaligi vazirligi bosh mutaxassisi,
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kunda Agrar sektor iqtisodiyoti, oziq-ovqat ta'minoti, balki ish o'rinlarini yaratish, qishloq joylarining rivojlanish, Kichik biznes agrar sektorda iqtisodiy faollikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va qishloq hududlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi masalalar taxlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Agrar sektor, Kichik biznes, mahalliy iqtisodiyot, aholi, daromad, biznes, rivojlantirish.*

Annotation: *today, the article highlights issues such as the economy of the agrarian sector, the provision of food, but also the creation of jobs, the development of rural areas, increasing economic activity in the small business agrarian sector, introducing innovations and ensuring sustainable development in rural areas.*

Keywords: *agrarian sector, small business, local economy, population, income, business, development.*

O'zbekiston agrar sektorida kichik biznesni rivojlantirish – mamlakat iqtisodiyotining muhim qismidir. Agrar sektor O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish orqali aholining bandligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hamda qishloq hududlarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq, O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, agrar sektorda kichik biznesni rivojlantirishning hozirgi holati, imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilish talab etiladi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirishni tartibga solish, shu jumladan davlat va qishloq xo'jalik bozori subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni, oziq-ovqat bozorida tovarlarga talab va taklifni davlat tomonidan tartibga solish, qishloq xo'jaligini budjetdan moliyalashtirish, davlat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga davlat yordami, agrosanoat ishlab chiqarishini narx, soliq va moliyaviy tartibga solish choralari va boshqalar Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat va nodavlat tartibga solishning maqbul nisbati masalalaridir. Agrosanoat kompleksi va agrooziq-ovqat bozorini rivojlantirishning ko'plab jihatlarini o'rganishning dolzarbligi, shuningdek, agrosanoat kompleksining faoliyati, shakllanishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan so'nggi qonun

hujjatlarining muvofiqligi va nomuvofiqligi bilan ham belgilanadi. Ilmiy doiralarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi masalasida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil yondashuv uchraydi. Birinchi yondashuv bo'yicha iqtisodiyot qanchalik bozor xarakteriga ega bo'lib borsa, shunchalik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi cheklanib, bozor mexanizmlarining amal qilishi kuchayib boradi. O'zbekistonning iqtisodiy tuzilmasida 2023-yilda agrar sektor 24,3 foizni tashkil etib, katta ulushga ega.

Agrar sektorda kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati shundaki, u qishloq joylarida bandlikni oshirishga yordam beradi, oziq-ovqat mahsulotlarining diversifikatsiyasini ta'minlaydi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardosh qilishga imkon beradi.

Kichik fermerlar va tadbirkorlar uchun yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish va zamonaviy usullardan foydalanish ularga daromad manbai hisoblanadi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zamon talablariga moslab borilayotganligi sababli suvni tejaydigan texnologiyalar 2021-yilning o'zida 433 ming gektar maydonda joriy etildi va ularning umumiy ko'rsatkichi sug'oriladigan maydonlarning 17 foizini tashkil qildi.

Biroq, suvni tejaydigan sug'orish tizimlarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, xarid qilish, joylarda loyihalashtirish va o'rnatishdagi kamchiliklar hamda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning bu boradagi ko'nikmalari yetarli emasligi mazkur texnologiyalarning o'z vaqtidan kechikib joriy qilinishiga sabab bo'lmoqda.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, mintaqada kuzatilayotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish maqsadida 2022-yildan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratish yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklariga qulaylik yaratish maqsadida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish ishlarini sifatli amalga oshiradigan hamda bozor iqtisodiyotida erkin raqobat talablariga to'liq javob bera oladigan "Tomchi-reestr" pudrat korxonalarining yagona elektron reyestri yaratilgan³².

Respublika bo'yicha 2019-2024-yillarda 4,3 mln gektar sug'oriladigan maydonlarining 42 foizida yoki 1,8 mln gektarda suv tejovchi texnologiyalari joriy qilingan. Shundan 530 ming gektarida tomchilatib sug'orish, 91 ming gektarida yomg'irli sug'orish, 61 ming gektarida diskret sug'orish hamda 1,1 mln gektarida lazerli tekislash ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur ko'rsatkichlarga, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilishga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi ishga tushirilganligi sababli erishilmoqda. Davlat tomonidan

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son qarori.

2020-2023-yillarda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilgan 1 831 ta talabgorlarga jami 472,1 mlrd so‘m, shundan 2023-yilning o‘zida 125,6 mlrd so‘m subsidiya ajratib berilgan.

Xulosa:Tahlillarga asosan, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish suv resurslarini 20 – 60 foizgacha, YoMM va mineral o‘g‘itlar sarfini 25 – 35 foizgacha iqtisod qilinishiga hamda hosildorlikni o‘rtacha 15 – 40 foizgacha oshirishga xizmat qilmoqda. Eng asosiysi suv tejoychi texnologiyalar joriy qilish orqali mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yilib, ekinlarni sug‘orishda bir yilda 2 mlrd m³ suv iqtisod qilinishiga erishilmoqda.

O‘zbekistonda agrar sektorda kichik biznesni rivojlantirishda katta salohiyat mavjud, ammo bu yo‘lda hal etilishi kerak bo‘lgan bir qator muammolar ham bor. Kichik biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar – moliyaviy resurslarning cheklanganligi, infratuzilma va yer munosabatlaridagi qiyinchiliklar, raqobatni rivojlantirishdagi to‘siqlar, boshqaruv malakalarining pastligi. Biroq, agar davlat tomonidan ilgari surilgan qator islohotlar va dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, kichik biznesning agrar sektorda rivojlanishiga yaxshi imkoniyatlar ochilishiga erishiladi. Kichik biznesni rivojlantirish orqali O‘zbekistonning qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratish, mahsulotlar eksportini oshirish va umumiy iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

REFERENCES:

1. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph // T.: Academia. – 2007. - T. 200.
2. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies.Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
4. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
5. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. DIgitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 12. – C. 209-218.
6. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy / / American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.

7. Д Х Суюнов, Н К Ёрматова. [Цифровая трансформация процессов управления персоналом в коммерческом банке](#). Journal of new century innovations 43 (4), 75-78.
24. D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev. [Elektron tijorat](#). дарслик. 2023 йил. 450 бет.
8. S D Kholmuradovich, RH Yuldashevich. [The Role Of Foreign Investments In The Development Of Small Business And Private Entrepreneurship](#). EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO).
9. To'Raqulov Botirturdiboy, S D Xolmuradovich. [Umumiy ovqatlanish korxonalari faolyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomilashtirish](#). Ta'lim fidoyilari 25 (5), 157-164.
10. D Suyunov, M Maxsudov. [The role of energy in the economic development of uzbekistan](#). Science and innovation 1 (A4), 145-149.
11. Д Х Суюнов, БР Турсунов. [Акциядорлик жамиятларда корпоратив бошқарув самарадолигини ошириш](#). Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2 (2), 48-55.
12. D.X Suyunov. [Implementation of modern international standards and methods corporate governance](#). International Finance and Accounting 2021 (3), 33.
13. Суюнов Д.Х., Холбаев Б.А. [Лойиҳа бошқаруви: услуб ва стандартлар](#). Ўқув кўлланма. 2018 йил. 195
14. Суюнов Д.Х., Холбаев Б.А. [Методы и стандарты управления проектами](#). учебное. 2018 год. 210 стр
15. Д.Х.Суюнов, Э.А.Хошимов, Ш.А.Хусаинов. [Корпоратив бошқарув: муаммолар ва замонавий ечимлар](#). "Корпоратив бошқарув: муаммолар ва замонавий ечимлар. 2018 йил. 220 бет.
16. Suyunov D.X., Elmirezayev S.E. [Korporativ boshqaruv](#). Дарслик – Toshkent: 2022 йил. 450 бет.
17. D X Suyunov. [Ways to introduce a modern control system for the development of joint stock companies](#). International Finance and Accounting 2020 (3), 33.
18. Д Х Суюнов. [Ўзбекистоннинг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлаш механизмлари](#). Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.